



## USMON NOSIR ASARLARIDA VOQEALIK VA ROMANTIZIM MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605757>

**Nuraliyeva Nasiba Axmadqulovna**

*Andijon davlat tibbiyot instituti*

*ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakili Usmon Nosir ijodida voqealik va romantizm masalalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoir asarlarida realizm va romantizimning uyg'unlashuvi, inson ruhiyati, erkinlik g'oyasi, milliy va estetik qarashlarining ifodalanshi tamoillari yoritiladi.*

*Tadqiqot davomida Usmon Nosir she'riyati va dramatic asarlaridagi badiiy obrazlar, poetic vositalar hamda romantic tafakkurning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Voqelik, romantizm, realizm, poetic tafakkur, estetik ideal, badiiy obraz, inson ruhiyati.*

**Annotation:** *This scientific article analyzes the artistic interpretation of the issues of realism and romanticism in the work of Usman Nasir, a prominent representative of Uzbek literature. The poet's works highlight the principles of the combination of realism and romanticism, the expression of the human psyche, the idea of freedom, national and aesthetic views.*

*During the research, artistic images, poetic devices and specific aspects of romantic thought in the poetry and dramatic works of Usman Nasir are revealed.*

**Keywords:** *Reality, romanticism, realism, poetic thought, aesthetic ideal, artistic image, human psyche.*

**Аннотация:** *В данной научной статье анализируется художественная интерпретация вопросов реализма и романтизма в творчестве Усмана Насира, видного представителя узбекской литературы. В произведениях поэта ярко проявляются принципы сочетания реализма и романтизма, выражение человеческой психики, идея свободы, национальные и эстетические взгляды.*

*В ходе исследования выявляются художественные образы, поэтические приемы и специфические аспекты романтической мысли в поэзии и драматическом творчестве Усмана Насира.*

**Ключевые слова:** *Реальность, романтизм, реализм, поэтическая мысль, эстетический идеал, художественный образ, человеческая психика.*

**Kirish** XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Usmon Nosir alohida o'rin tutadi. U qisqa umr ko'rgan bo'lsada,

milliy she'riyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlarda biridir. Shoir ijodining asosiy xususiyatlaridan biri-



voqelikni haqqoniy tasvirlash bilan romantic ruhi uyg'unlashtira olganidadir. Uning asarlarida inson qalbi, ozodlikka intilish, muhabbat, hayot va kurash masalalari chuqur estetik talqin etiladi.

Usmon Nosir she'riyatida faqat tashqi hodisalar tasviri bilan cheklanmaydi. Shoir hayotni inson ruhiyati orqali ochib beradi. Shu bilan birga, u mavjud muommalarni romantic ideal asosida yoritadi. Natijada ijodkor asarlarida realism va romantizimning o'zaro uyg'unligi yuzaga keladi. Usmon Nosir asarlarida voqealik va romantizm bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shoir ijodida hayotning og'ir haqiqatlari ham, insonning orzu-intilishlari ham kuchli badiiy ruh bilan tasvirlangan.

Voqealik mohiyati-Usmon Nosir asarlarida voqelik- bu xalq hayoti, inson taqdiri, erkinlik, adolat va zamon muammolarining haqqoniy aksidir. Shoir hayotini qanday bo'lsa, shunday tasvirlashga intiladi. Ayniqsa, uning she'rlarida:

- 1 Insonning ichki kechinmalari;
- 2 Jamiyatdagi adolatsizlik;
- 3 Yoshlikningkurashchan ruhi;
- 4 Vatanga muhabbat;
- 5 Ozodlikka intilish

Kabi masalalar real voqealar va chin insoniy hissiyotlar asosida yoritiladi.

Masalan, "Yurak", "Nil va Rim", "Naxshon" kabi asarlarida inson qalbidagi iztiroblar, zamon bilan kurash, erkin yashash istagi yaqqol ko'rinadi. Shoir voqelikni faqat tashqi hodisa sifatida emas, balki inson ruhiyati orqali

ochib beradi, va yurak obrazini tirik va jo'shqin ramz sifatida talqin etadi. Bu orqali insonning hayotidagi o'rni va ichki kechinmalari badiiy ochib beriladi.

Nil va rim asarini olsak, tarihiy voqelik romantic ruh bilan uyg'unlashadi. Shoir zulm va adolatsizlikka qarshi kurashayotgan inson obrazini ulug'laydi. Asarlardagi voqealar real tarixiy asosga ega bo'sada, qahramonlarning ruhiy olami romantic bo'yoqlarda tasvirlanadi.

Romantizm mohiyati Usmon Nosir ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri- kuchli romantic ruhdur. Uning qahramonlari oddiy inson bo'lsada, ularda ulkan ozru, yuksak maqsad va cheksiz ishonch mavjud. Romantizm quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Ideal va erkin hayotga intilish;
2. Kuchli ehtiros va inson uyg'unligi;
3. Tabiat va inson uyg'unligi;
4. Qahramonning ruhiy yuksakligi;
5. Kelajakka umid bilan qarash.

Shoir she'rlarida tuyg'ular nihoyatda jo'shqin ifodalanadi. U inson qalbini erkinlik va go'zallik sari chorlaydi. Shu sababli Usmon Nosir romantizmi faqat hayoliy emas, balki hayotiy romantizmdir.

Voqelik va romantizm uyg'unligi Usmon Nosir ijodida realism va romantizm o'zaro uyg'unlashadi. Shoir:



Hayotning achchiq haqiqatlarini ko'rsatadi;

Lekin insonni umidsizlikka emas, kurash va orzuga chorlaydi.

Shuning uchun uning asarlarida fojiviylik bilan birga ulug'vorlik ham mavjud. U hayotni sevadi, inson qudratiga ishonadi va kelajakni yorug' tasavvur qiladi.

Romantizimning estetik mohiyatini taxlil qilsak; Usmon Nosir ijodining muhim jihatlaridan biri-kuchli romantic tafakkurdir. Shoir uchun romantizm hayotdan qochish emas, balki hayotni ulug'vor maqsadlar orqali anglash vositasidir. U insonning ma'naviy qudratiga, kelajak va erkinlikka bo'lgan ishonchiga katta e'tibor beradi. Shoir romantizmning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Erkinlik g'oyasi Usmon Nosir ijodida erkinlik eng yuksak qadriyat sifatida tasvirlanadi. Shoirning lirik qahramonlari doimo ozodlikka intiladi. Ularning qalbida kurash va isyon ruhi mavjud bo'ladi.

2. Kuchli hissiy jo'shqinlik Shoir she'rlarida hissiyot nihoyatda kuchli va ta'sirchan ifodalanadi. Bu holat romantic uslubning muhim belgilaridan biridir. Usmon Nosir tabiat manzaralarini ham inson ruhiyati bilan uyg'unlashtirib tasvirlaydi.

3. Ideal obraz yaratish Shoir qahramonlari oddiy insonlar bo'lsada, ularda ulkan maqsad va yuksak orzular mujassam bo'ladi. Ular fojiga duch kelsalar ham, ruhiy jihatlari sinmaydi.

4. Kelajakka ishonch bu Usmon Nosir romantizmi umidsizlikka emas, hayotga mihabbat va kelajakka ishonchiga asoslanadi. Shoir insonning ma'naviy qudratini ulug'laydi.

Usmon Nosir ijodida voqealik va romantizm uyg'unligi insonning ozodlikka, go'zalikka va yuksak idealarga bo'lgan kuchli intilishida namoyon bo'ladi. Shoir asarlarida real hayot, isyonkor romantic ruh va kuchli hissiyotlar yorqin badiiy tasvirni hosil qiladi. Quyidagi uning ijodidagi voqealik va romantizm talqinining asosiy jihatlari bilan tanishish mumkin:

Hayotiylik va voqealik talqini: Usmon Nosir o'zbek adabiyotiga soxta shoirlardan holi, real insoniy tuyg'ularni olib kirdi. Uning "Norbo'ta" (1932), "Traktrabod" (1934), "Yurak" (1935) kabi asarlarida voqealik, mehnat jarayoni va davr muhiti juda tabiiy aks etgan.

Romantik isyon va erkparvarlik: Shoir ijodida romantizm qalb erkinligi, jamiyatdagi eski tartiblarga qarshi kurash shaklida namoyon bo'ladi. Jumladan, uning "Naxshon" dostonoda arman xalqining ozodlik uchun kurashi kuchli romantic ruhda, jo'shqin pafos bilan tasvirlangan.

Ideal va voqealik to'qnashuvi: Usmon Nosir lirikasida lirik qahramon har doim ideal (orzu qilingan) go'zallikni qidiradi, biroq real borliq unga zid keladi. Bu holat "Monolog" va "Yana she'rimga" kabi she'rlarida yaqqol ko'rinadi. Bunda romantizm voqealikning og'riqli nuqtalarini ko'rsatib berish vositasiga aylanadi.



Tarihiy romantizm (Nil va Rim): Shoir tarixga ham romantic ko'z bilan qarab, antic davrdagi qullar isyonini kuylaydi.

Asarlardagi o'lim va ozodlik masalasi romantic qahramonning kurashga chorlovchi falsafasini ochib beradi. Olovli tuyg'ular va ehtiros: Shoir lirik qahramonining qalbi doim harakatda, kurashda va ehtirosda bo'ladi. Uning mashhur "Yurak" she'ridagi misralar aynan romantic ruhning yorqin namunasi: Masalan:

Yurak! Sensan mening bog'im,  
Gulistsan, chamansan sen!

**HULOSA:** Usmon Nosir asarlarida voqelik hayot haqiqatlarini haqqoniy tasvirlash orqali ochilsa, romantizm insonning yuksak orzu va ideallarini ifodalashga xizmat qiladi. Shoir ana shu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirib, o'zbek adabiyotida betakror badiiy olam yaratgan. Uning ijodi inson erki, muhabbat, go'zallik va hayot uchun kurash g'oyalari bilan bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Usmon Nosir ijodida voqelik va romantizm o'zaro uyg'un holda namoyon

bo'ladi. Shoir hayot haqiqatlarini haqqoniy tasvirlash bilan birga, inson qalbidagi yuksak orzu va ideallarni romantic, ruhda ifodalaydi. Uning asarlarida erkinlik, muhabbat, insoniylik va estetik go'zallik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Usmon Nosir she'riyatida romantizm yorqin hissiyotlar, isyonkor ruh va go'zallika tashnalik bilan ham uyg'unlashgan. Uning lirik qahramoni ideal dunyoni qumsaydigan, jamiyat va tabiat uyg'unligini kuylaydigan, erkinlik uchun kurashadigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Usmon Nosir romantizmi hayotdan uzilgan hayolparastlik emas, balki insonni ma'naviy yuksalishga chorlovchi estetik qarashdir. Shu jihatdan uning ijodi o'zbek adabiyotida realism va romantizm sintezining yorqin namunasi hisoblanadi.

Shuningdek, Usmon Nosir jahon romantizmi namoyondalari Lermontovning "Iblis" dostonini yoki Pushkin asarlarini yuksak mahorat bilan tarjima qilganini ham uning romantizmga bo'lgan mehridan dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1984y.
2. Ozod Sharofiddinov. Ijodni anglash baxti.- Toshkent: Ma'naviyat, 2004y,
3. Ibrohim G'afurov. Badiiy tafakkur jilolari,- Toshkent: Fan, 1986y.
4. Naim Karimov. XXasr o'zbek adabiyoti tarixi,- Toshkent: O'qituvchi, 1999y,
5. Ozbektoston Milliy universiteti ilmiy maqolalari va adabiyotshunoslik manbalari.
6. Rasulov. A. She'riyati va shaxs: adabiy-tanqidiy tadqiqot. -Toshkent:Fan, 2006y.
7. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org>.
8. Ziyouz.uz <https://uz.ziyo.uz>.